

POKISTONDA 1977–2007 YILLARDA GENDER MASALASI: DAVLAT SIYOSATI VA AYOLLAR HARAKATLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-86-89>

To'xtasinova Shaxnoza Ibroximovna
Sarbo'n universiteti katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Pokistonda gender masalasi mamlakatning siyosiy rivojlanishi, diniy omil va ijtimoiy tuzilmasi bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. 1977–2007 yillar oralig'i ushbu masalaning keskinlashuvi va bir vaqtning o'zida ayollar huquqlarini himoya qiluvchi fuqarolik institutlarining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Mazkur davrda Women's Action Forum (WAF) va Shirkat Gah kabi tashkilotlar gender tengligi masalasini jamoatchilik va siyosiy kun tartibiga olib chiqishda muhim rol o'ynadi.

Kalit so'zlar: Gender, Hudud qonunlari, WAF, Aurat Foundation, Shirkat Gah, AGHS Legal Aid Cell, Ziyo ul-Haq, Benazir Bhutto.

ABSTRACT

In Pakistan, the issue of gender has been inextricably linked to the country's political development, religious factors, and social structure. The period from 1977 to 2007 was characterized by the intensification of this issue and the simultaneous formation of civil institutions that protected women's rights. During this period, organizations such as the Women's Action Forum (WAF) and Shirkat Gah played a significant role in bringing the issue of gender equality to the public and political agenda.

Key words: Gender, Territorial laws, WAF, Aurat Foundation, Shirkat Gah, AGHS Legal Aid Cell, Zia ul-Haq, Benazir Bhutto.

АННОТАЦИЯ

В Пакистане гендерный вопрос неразрывно связан с политическим развитием страны, религиозными факторами и социальной структурой. Период с 1977 по 2007 год характеризовался обострением этой проблемы и одновременным формированием гражданских институтов, защищающих права женщин. В этот период такие организации, как «Женский форум действий» (WAF) и «Ширкат Гах», сыграли значительную роль в привлечении внимания общественности и политиков к вопросу гендерного равенства.

Ключевые слова: Гендер, Территориальное законодательство, WAF, Aurat Foundation, Shirkat Gah, Центр юридической помощи AGHS, Зия уль-Хак, Беназир Бхутто.

1977 yilda general Muhammad Ziyo ul-Haq tomonidan amalga oshirilgan harbiy to'ntarishdan so'ng Pokistonda “islomlashtirish siyosati” davlat ideologiyasiga aylantirildi. 1979 yilda qabul qilingan Hudud qonunlari ayollarning huquqiy holatini sezilarli darajada yomonlashtirdi. Xususan, zo'rlash va zina jinoyatlarida isbot yukining ayollar zimmasiga yuklanishi ularni sud tizimida zaif holatga tushirdi. Mazkur davrda ayollarning jamoat hayotidagi ishtiroki cheklanib, gender tengsizligi qonuniy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlandi. Aynan shu sharoit ayollar harakatining faollashuviga turtki bo'ldi¹. 1981 yilda tashkil etilgan

¹ Mumtaz, K., & Shaheed, F. *Women of Pakistan: Two Steps Forward, One Step Back?* London: Zed Books, 1987.

Women’s Action Forum Pokistondagi eng faol feministik harakatlardan biri hisoblanadi. Tashkilot asosan Hudud qonunlariga qarshi norozilik namoyishlari, gender tengligi va konstitutsion huquqlarni himoya qilish bilan shug‘ullandi. WAF harbiy boshqaruv sharoitida ayollarning jamoat maydonidagi ovozi kuchaytirgan muhim platforma bo‘ldi. Aurat Foundation.1986 yilda tashkil etilgan Aurat Foundation ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan faoliyat olib bordi. Tashkilot saylov jarayonlarida ayollar ishtirokini ta’minlash, gender masalalariga oid tadqiqotlar o‘tkazish va siyosiy tavsiyalar ishlab chiqish bilan mashhur bo‘ldi. Shirkat Gah – Women’s Resource Centre.Shirkat Gah 1975 yilda tashkil etilgan bo‘lsa-da, aynan 1977–2007 yillarda uning faoliyati yanada faollashdi. Tashkilot ayollar masalalarini ilmiy, huquqiy va madaniy jihatdan o‘rganish, nashrlar orqali jamoatchilik ongini oshirishga xizmat qildi. AGHS Legal Aid Cell.Mashhur huquq himoyachisi Asma Jahangir tomonidan 1980 yilda tashkil etilgan AGHS Legal Aid Cell ayollarga bepul huquqiy yordam ko‘rsatishga ixtisoslashdi. Tashkilot oilaviy zo‘ravonlik, majburiy nikoh, meros va ajralish masalalarida minglab ayollarning huquqlarini sud orqali himoya qildi. Human Rights Commission of Pakistan (HRCP).1987 yilda tashkil etilgan HRCP inson huquqlarini, jumladan ayollar huquqlarini monitoring qilish va hujjatlashtirish bilan shug‘ullandi. HRCP yillik hisobotlari milliy va xalqaro miqyosda Pokistondagi ayollar ahvoli haqida muhim manba bo‘lib xizmat qildi.1975 yilda tashkil etilgan Shirkat Gah – Women’s Resource Centre Ziyo ul-Haq davrida gender masalasida muhim ilmiy va intellektual markazga aylandi. Tashkilot ayollar huquqlariga oid tadqiqotlar olib bordi, diskriminatsion qonunlarni tahlil qildi va huquqiy islohotlar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqdi. Shirkat Gahning asosiy xizmati shundaki, u gender masalasini faqat norozilik darajasida emas, balki ilmiy asoslangan siyosiy muammo sifatida shakllantirdi. Ushbu yondashuv keyinchalik davlat va xalqaro tashkilotlar bilan muloqotda muhim ahamiyat kasb etdi. 1981 yilda tashkil etilgan Women’s Action Forum (WAF) Pokistonda ochiq feministik qarshilik harakati sifatida tarixga kirdi. WAF Hudud qonunlariga, ayollarning sud tizimidagi kamsitilishiga va davlat siyosatidagi gender tengsizligiga qarshi chiqdi.WAF norozilik namoyishlari, matbuot chiqishlari va jamoatchilik murojaatlari orqali ayollar huquqlarini inson huquqlari kontekstida talqin qildi. Ushbu harakat Pokistonda gender masalasining siyosiy tus olishiga va fuqarolik jamiyati shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Pokistonda gender tenglik masalasi mustamlakachilik davridayoq muayyan ijtimoiy ziddiyatlar markazida bo‘lgan. Ammo 1980-yillar oxiriga kelib, xalqaro miqyosda inson huquqlari, ayniqsa ayollar huquqlarini himoya qilish masalalari kuchaygan sharoitda, mamlakat ichkarisida ham bu boradagi islohotlar zaruratga aylandi. Aynan 1988-yilda hokimiyatga Benazir Bhutto boshchiligidagi Pokiston xalq partiyasining (PPP) qaytishi bilan demokratik qadriyatlar, siyosiy plyuralizm va ayollar faolligini oshirishga qaratilgan yangi siyosiy davr boshlandi².

² Shaheed, F. “The Women’s Movement in Pakistan.” *Signs: Journal of Women in Culture and Society*, 1998.

Benazir Bhutto nafaqat Pokiston, balki butun musulmon dunyosi tarixida birinchi ayol bosh vazir sifatida siyosiy tarixga kirdi. Uning hokimiyatga kelishi gender siyosatida tub burilish yasadi: ayollarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb etish, ta’lim va bandlik sohalarida imkoniyatlar yaratish, shuningdek, ayollarga qarshi zo’ravonlikka qarshi qonunchilik bazasini kuchaytirish bo’yicha dastlabki qadamlar aynan shu davrda qo’yildi. Shu tariqa 1988-1999-yillar oralig’i Pokiston tarixida ayollar huquqlari uchun kurashning yangi bosqichi, siyosiy boshqaruvda demokratik institutlarning shakllanish davri sifatida baholanishi mumkin.

Mazkur davrning o’ziga xos jihati shundan iboratki, Pokiston jamiyati o’ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo’lib, unda diniy qadriyatlar, patriarxal ijtimoiy tuzilmalar va zamonaviy demokratik tamoyillar o’zaro to’qnash kelgan. Shu bois gender islohotlarini amalga oshirish nafaqat siyosiy, balki madaniy va dini jihatdan ham murakkab jarayon bo’ldi. Biroq xalqaro tashkilotlarning, xususan BMTning “Ayollar holati bo’yicha komissiyasi” va “CEDAW” (Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women) kabi xalqaro konvensiyalar doirasidagi bosim va tavsiyalar mamlakat hukumati tomonidan bu yo’nalishda ma’lum chora-tadbirlarni amalga oshirishga turtki berdi³.

Pokistonda demokratlashuv jarayonining yana bir o’ziga xos jihati shundaki, siyosiy tizimda fuqarolik institutlari, partiyalar va OAVning roli ortib bordi. 1988-1999-yillar mobaynida mamlakatda bir necha marotaba saylovlar o’tkazildi, ayollar siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar hamda jamoatchilik harakatlarida faol ishtirok eta boshladilar. Bu holat o’z navbatida, demokratik qadriyatlar bilan gender siyosatining o’zaro uyg’unlashuvini ta’minladi.

Mazkur tadqiqotda 1988-1999-yillar davrida Pokiston siyosiy boshqaruv tizimida demokratik islohotlar jarayonining ayollar huquqlari, gender tenglik siyosati va ijtimoiy faollikning ortishiga ta’siri tahlil qilinadi. Bu jarayonning o’ziga xos jihatlari – ayollar siyosiy hayotga kirib kelishining ijtimoiy-siyosiy sabablari, davlat siyosatida gender masalasining ko’tarilishi, diniy-madaniy cheklovlarning o’zgaruvchanligi hamda xalqaro omillar ta’siri – ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Shu ma’noda, Pokiston tajribasi nafaqat Janubiy Osiyo mintaqasida, balki musulmon dunyosida demokratik qadriyatlar va gender siyosati uyg’unligining o’ziga xos modeli sifatida ahamiyat kasb etadi. 1988-yil Pokiston siyosiy tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu yil mamlakatda uzoq yillar davom etgan general Ziyo ul-Haqqning harbiy boshqaruvi tugab, fuqarolik hukumatiga o’tish davri boshlandi. 1977-yildan beri mamlakat harbiy rejim ostida bo’lgan, siyosiy partiyalar faoliyati cheklangan, ayollar huquqlari esa diniy-siyosiy mafkura doirasida toraygan edi. Ziyo ul-Haq siyosati davomida “Islomlashtirish” dasturi ostida qabul qilingan qonunlar, xususan “Hudud ordonansi” (Hudood Ordinances, 1979), ayollarning ijtimoiy mavqeini yanada zaiflashtirdi. Bu qonunlarga ko’ra, jinsiy jinoyatlar isbotida ayollarning guvohligi ishonchsiz

³Butto, B. Daughter of the East: An Autobiography. London: Hamish Hamilton, 1988, p. 167.

hisoblanar, bu esa ko‘plab ayollarni jinoiy javobgarlikka tortilish xavfiga duchor qilgan edi⁴.

Shu sharoitda 1988-yilda Ziyo ul-Haqning halok bo‘lishi mamlakatda yangi siyosiy imkoniyatlar ochdi. O‘sha yilning noyabr oyida o‘tkazilgan saylovlar natijasida Benazir Bhutto boshchiligidagi Pokiston Xalq partiyasi (PPP) g‘alaba qozondi va u musulmon dunyosining ilk ayol bosh vaziri sifatida hokimiyat tepasiga keldi. Uning saylanishi nafaqat demokratik qadriyatlarning tiklanishi, balki gender masalalarining siyosiy maydonga qaytishi uchun ham muhim burilish bo‘ldi. Benazir Bhutto o‘z hukumatini “demokratik yangilanish” davri deb atadi va siyosiy tizimni fuqarolik institutlariga qaytarish, ayollarni siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga jalb etish, shuningdek, harbiylarning siyosiy ta’sirini kamaytirish vazifasini oldiga qo‘ydi. WAF va Shirkat Gah kabi tashkilotlar ayollar ta’limi, bandligi va huquqiy himoyasi masalalarini doimiy ravishda ilgari surib bordi. General Parvez Musharraf davrida gender masalasida nisbatan liberal siyosat olib borildi. Ayollarning siyosiy vakilligi oshirildi, parlament va mahalliy boshqaruv organlarida kvotalar joriy etildi. 2006 yilda qabul qilingan Women’s Protection Act Hudud qonunlarining ayrim eng keskin jihatlari yumshatdi. Mazkur islohotlarning shakllanishida WAF va Shirkat Gah tomonidan olib borilgan ko‘p yillik intellektual va jamoatchilik bosimi muhim omil bo‘ldi. Xulosa qilib aytganda 1977–2007 yillarda Pokistonda gender masalasi repressiv siyosatdan nisbatan islohotchi yondashuvga tomon murakkab evolyutsiyani bosib o‘tdi. Ushbu jarayonda Women’s Action Forum va Shirkat Gah ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tengligini targ‘ib etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Ularning faoliyati Pokistonda gender masalasini davlat siyosati va jamiyat ongida muhim muammo sifatida mustahkamladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mumtaz, K., & Shaheed, F. *Women of Pakistan: Two Steps Forward, One Step Back?* London: Zed Books, 1987.
2. Shaheed, F. “The Women’s Movement in Pakistan.” *Signs: Journal of Women in Culture and Society*, 1998.
3. Zia, A. S. *Faith and Feminism in Pakistan*. Brighton: Sussex Academic Press, 2018.
4. Butto, B. *Daughter of the East: An Autobiography*. London: Hamish Hamilton, 1988, p. 167
5. Weiss, A. M. *Women’s Rights in the Muslim World*. Boulder: Lynne Rienner, 2005.

⁴ Zia, A. S. *Faith and Feminism in Pakistan*. Brighton: Sussex Academic Press, 2018.